Abdumalik ibn Nuh



# Abdumalik ibn Nuh

**Amiri Rashid**

(944-961)

(954-961)

***Somoniylar*** amiri. Otasi ***Nuh ibn Nasr*** vafot etgach 10 yoshida taxtga oʻtirgan. ***Nuh ibn Nasr*** davrida buvayhiylar bilan boshlangan urush Abdumalik ibn Nuh davrida (956) yarash bilan yakun topadi. Abdumalik ibn Nuh davrida davlatni idora qilishda lashkarboshilarning mavqei baland boʻlgan. Masalan, hojiblik mansabiga tayinlangan **Alptegin**ning obroʻsi oshib ketganidan xavfsirab, uni mansabidan chetlamoqchi boʻlgan, biroq uddasidan chiqa olmagan. Abdumalik ibn Nuh chavgon oʻynab, otdan yiqilib halok boʻlgan.

2023-10-29 20:44:58